



Received: October 23, 2023
Accepted: December 22, 2023
Available online: December 25, 2023

Jamoliddin Yakubov

Filologiya fanlar doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA PARALINGVISTIK (NOVERBAL) MUNOSABATLAR VA ULARNI IFODALASHNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Insonning jamiyatda mavjudligi, eng avvalo, uning muloqot qilish qobiliyati bilan belgilanadi. Xususan, ushbu maqolaning maqsadi o'zbek va fransuz tillarida nonverbal vositalarning qanday yo'llar bilan ifodalanishini ochib berish etib belgilangan.

Muloqotning asosiy vazifasi har doim adekvat tushunish istagi bo'lgan. Maqolaning asosiy vazifalari (1) paralingvistik vositalarni semantik guruhlariga ajratib tahlil qilish; (2) nonverbal vositalarni tuzilishiga ko'ra ikki bosh bo'lakli gaplarda tahlil qilish. Inson o'z fikrlarini yo'qotmasdan yetkazish uchun til va madaniyat tomonidan taqdim etilgan ko'plab vositalardan foydalanadi. Masalan, og'zaki xabarlardan tashqari, muloqotda og'zaki bo'lmagan aloqa vositalari ham qo'llaniladi: paralingvistik tizim va tana belgilari. Og'zaki muloqotda og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot ajralmasdir: imo-ishoralar, mimikalar, tana harakatlari va fonatsiya xususiyatlari suhbatga kiritiladi va agar ular qabul qiluvchi tomonidan noto'g'ri talqin qilingan bo'lsa, aloqa harakati tugallangan deb hisoblanmaydi.

Maqola komponent tahlil, distributiv va funksional tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan, unda o'zbek va fransuz tillarida paralingvistik vositalarning qanday yo'l bilan ifodalanishiga va ularning semantik tasnifiga asosiy e'tibor qaratildi. Maqolada paralingvistik vositalar yordamida o'zbek va fransuz

Jamoliddin Yakubov

Doctor of Sciences in Philology (DSc), Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: yakubov1955@mail.ru

PARALINGUISTIC (NON-VERBAL) RELATIONS AND LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THEIR EXPRESSION IN THE UZBEK AND FRENCH LANGUAGES

ABSTRACT

During joint activities, communication occurs as people interact with one another. However, the presence of a person in society is determined, first of all, by his ability to communicate. In this article, we explore how non-verbal communication is expressed in Uzbek and French.

The primary goal of communication has always been to ensure accurate understanding. The article analyzes paralinguistic tools by grouping them semantically and non-verbal means in two-clause sentences by their structure. Language, culture, and communication are interconnected, as language is the immediate expression of thought, and culture provides tools to convey ideas effectively, without losing their essence. Besides verbal messages, non-verbal modes of communication are also employed, such as the paralinguistic system and bodily cues. When communicating, it is necessary for both parties to accurately interpret the features discussed, otherwise the communication is incomplete.

During the analysis of the article, component analysis, distributive and functional research methods were used. The article focused on the semantic classification of paralinguistic tools in Uzbek and French languages and how they are expressed. It analyzes examples of paralinguistic means used by Uzbek and French writers in their works of fiction. These means have been classified based on their semantic and structural features into different groups.

Nonverbal communication includes a lot of hidden information, such as the speaker's mentality and intellectual processes, and cultural

yozuvchilarining olingan misollar tahlilga tortildi. Ular semantik tasniflarga va tuzilish xususiyatlariga ko'ra turli xil guruhlarga ajratildi.

Og'zaki bo'lmagan muloqot vositalarining orqasida katta hajmdagi ma'lumotlar, jumladan, ma'ruzachining mentaliteti va u amalga oshiradigan intellektual operatsiyalarni aks ettiruvchi chuqur madaniy qatlam yashiringan bo'ladi. Shunday qilib, bu vositalar bizga nafaqat individual shaxsning fe'l-atvori va kayfiyatini tushunishga, balki xalqning madaniy xususiyatlarini ham aks ettirishga imkoniyat taqdim qiladi. Paralingvistik vositalar va tana tilini o'rganish chet tilini, shu jumladan, fransuz tilini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: imo-ishoralar, paralingvistika, paratil, verbal vosita, noverbal vosita, mimika, og'zaki muloqot, fransuz tili, madaniy qatlam.

KIRISH

Inson yaralibdiki, his-hayajon, turli imo-ishoralar, xatti-harakatlar tabiiy fiziologik refleks hisoblanadi. Bu reflekslarni yozuvchilar, shoirlar, qo'shiqchilar, umuman olganda, butun insoniyat turlicha qo'l harakatlari, yuz ifodalari va imo-ishoralar hamda xayol yoki fikrlar orqali bayon etib kelishmoqda. Shunday ekan, bunday his-hayajonli holatlarni fanda tilshunoslikning paralingvistika bo'limi o'rganadi [Abdullayeva, 2022].

Badiiy matnda somatizmlar va somatik iboralar yordamida aks ettirilgan og'zaki bo'lmagan muloqotga katta e'tibor berish kerak, ya'ni yuz ifodalari, imo-ishoralar, kommunikativ ahamiyatga ega bo'lgan tana harakatlari va fonatsiya xususiyatlarini yetkazadigan leksik vositalarga. Bunday matnlarda muallif kommunikativ vaziyatlar va dialoglarni imkon qadar real holatlarga yaqinlashtirishga harakat qiladi va qahramon nutqiga hamroh bo'lgan imo-ishoralar, mimika va harakatlarni tasvirlamasdan turib qilolmaydi. Bundan tashqari, matnda muloqot paytida qahramonlarning tashqi xatti-harakatlarini tavsiflash o'quvchiga ularning psixologik xususiyatlarini to'liqroq va to'g'ri yetkazish, ularning hayoti va faoliyati haqidagi g'oyalarni qayta qurish, ularning xohish-istaklari, kayfiyati va munosabatlarini tushunishga imkon beradi.

Ta'kidlash lozimki, "paralingvistika" atamasining o'zi 1940-yillarning oxirida fanga kiritilgan. Amerikalik tilshunos A.Xill kuzatilgan paralingvistik hodisalarning til bilan bog'lanishiga e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, bu hodisa tilshunos olim N.V. Yushmanning 1930-yillarda yozilgan "G'ayritabiiy fonetika" asarida e'tiborini tortdi.

Avvalambor, til – fikrning bevosita gavdasi, ya'ni so'zlovchi ifodalamoqchi bo'lgan narsadir. Til va tana tili deb ataladigan narsa yordamida inson ma'lumot almashishi, o'z xohish-irodasini ifodalashi va hokazo. Til inson his qilgan hamma narsani ifodalashga, uning hayotida sodir bo'layotgan hamma narsani tasvirlashga

qodir; u insonning fikr va his-tuyg‘ularini moddiy shaklga qo‘yadi.

Ko‘rinib turibdiki, til inson fikrini ifodalash vazifasida birinchi o‘rinda turadi. Ammo bu aloqa “faqat tovushli material qobig‘ida” chegaralangan va “aniq aloqa holatini tashkil etuvchi barcha sharoitlardan” ajratilgan degani emas [Kolshanskiy, 2014; 4].

Muloqot ma‘lum sharoitlardagina sodir bo‘ladi, bu ma‘ruzachi qanday vositadan foydalanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu fikrga asoslanib, biz og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot haqida so‘z yuritishimiz mumkin.

Muloqotning o‘zi keng ma‘noda shaxslarning o‘zaro ta’siri, o‘zaro ta’sir qilish jarayoni va uning usullari sodir bo‘ladigan tizimdir [Terin, 2000; 197]. Boshqacha qilib aytganda, bu muloqot va odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishdir. Og‘zaki muloqot aloqaning asosiy usuli bo‘lib, til yordamida amalga oshiriladi va bu og‘zaki yoki yozma bo‘lishi mumkin. Oddiy qilib aytganda, bu bizning kundalik tilimiz: biz gaplashamiz va yozamiz – bu og‘zaki muloqot.

Og‘zaki bo‘lmagan muloqot og‘zaki vositalardan (nutq va til) foydalanishni o‘z ichiga olmaydi; bu so‘zlarning yordamisiz ma‘lumot almashishdir. Og‘zaki bo‘lmagan muloqot va og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositasi inson tanasi va o‘ziga xos vaziyatga aylanadi, chunki odamlar o‘z niyatlarini amalga oshirish jarayonida “ko‘pincha paralingvistik yoki paralingvistik birliklarga murojaat qilishadi” [Kreydlin, 2002; 26]. Qisqacha qilib aytganda, muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir.

Odamlar muloqot jarayonida so‘zlardan tashqari, ya’ni verbal vositalardan tashqari, turli xil harakatlardan, qiliqlardan, holatlardan, kulgu, ohang va boshqa vositalardan ham foydalanishadi. Jumladan, qiliqlar, mimika, ohanglar, to‘xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig‘i, ko‘z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o‘zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo‘lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to‘ldiradi, ba’zan esa nutqli muloqotning o‘rnini bosadi, bunday vositalar noverbal vositalar deyiladi.

TADQIQOT METODLARI

O‘zbek va fransuz tillarida paralingvistik (noverbal) munosabatlar va ularni ifodalashning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq qilishimizda tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqot metodlari – komponent tahlil, distributiv va funksional tadqiqot metodlaridan samarali foydalanildi. Jumladan, unda o‘zbek va fransuz tillarida paralingvistik vositalarning qanday yo‘l hamda usullar bilan bevosita ifodalanishiga, ularning semantik tasniflanishiga asosiy e’tiborimiz qaratildi. Mazkur masalada ko‘zlangan natijalarga erishishimiz uchun maqolada paralingvistik vositalar yordamida o‘zbek va fransuz yozuvchilarining badiiy adabiyotlari – “Farg‘ona tong otguncha” (M.Ismoilij), “O‘tkan kunlar” (A.Qodiriy), “Himmat” (F.Musajonov), “Ikki eshik orasi” (O‘.Hoshimov), “Cuvres complètes de Berquin” (A.Berquin), “Les temps difficiles” (E.Bourdet), “Theatre complet” (F. de Curel), “Dupuis et des Ronais: Comedie en trois actes, et en vers libres” (Ch.Colle), “Un client sérieux”

(G.Courteline), “Clérambard” (M.Aymé), “Cromwell” (V.Hugo), “Le gentilhomme guespin, comédie” (D.J. Vizé), “Charlotte Corday” (F.Ponsard, J.F. Davis, & A.Ross) dan olingan misollar birma-bir tahlilga tortildi. O‘z navbatida, ular semantik tasniflarga va tuzilish xususiyatlariga ko‘ra turli xil guruhlariga ajratildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko‘z qarashlari turi borligini kuzatgan. G.M. Andreyevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarning 2000ga yaqin ko‘rinishlari mavjud. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko‘zlar to‘qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta‘sir ko‘rsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida o‘rganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo‘lishini ta‘minlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi [G‘oziyev, 2001].

Ushbu maqolada noverbal vositalarni kengroq nazariy va amaliy jihatdan yoritish maqsadida biz xorijiy tilshunos olimlarning ilmiy ishlariга murojat qildik. Misol uchun, rus tilshunos olimlari G.Kolshanskiy va G.E. Kreydlinlar tilda noverbal vositalarning qanday yo‘llar bilan ifodalanishini ilk bor tahlil qilishgan. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda hududiy xususiyatlari ham borligini alohida ta‘kidlab o‘tishgan.

Umuman olganda, paralingvistika – o‘zi nima degan savollarga yagona javob yo‘q. Paralingvistika va uning vositalari haqida gapirishdan oldin bu tushunchalarga aniqlik kiritib olish zarur. Paralingvistika – bu “nutq xabariga kiritilgan va og‘zaki vositalar, semantik ma‘lumotlar bilan birga yetkazishning og‘zaki bo‘lmagan (til bo‘lmagan) vositalarini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi” [Yartseva, 1990].

Ushbu maqolada biz paralingvistikani kengroq tushunishga, uning doirasida biz muloqot jarayonida yuz ifodalari va imo-ishoralarini (kinesika) o‘rganamiz. G.E. Kreydlinning “O‘zgacha semiotika” nomli asarida berilgan ta‘rifga amal qilamiz: “Paralingvistikada noverbal semiotikaning alohida bo‘limini tashkil etuvchi va o‘rganish predmeti paratil bo‘lgan fan tushuniladi – nutqqa qo‘shimcha bo‘lgan tovush kodlari nutq aloqasi jarayoniga kiritilgan va bu jarayonda semantik ma‘lumotlarni uzata oladi” [Kreydlin, 2002; 27].

G.E. Kreydlin paralingvistikaning asosiy birliklarini paralingvistik elementlar va paralingvistik birliklar deb ataydi. Agar bu tushunchalar orasidagi farqni aniqlasak, paralingvistika nolingvistik vositalar haqidagi fan, paratil esa muloqotda ishtirok etuvchi bu vositalarning yig‘indisidir. Biroq tadqiqotchi G.V. Kolshanskiy zamonaviy adabiyotda “paralingvistika” atamasi ushbu ikkala ma‘noni ham o‘z ichiga olgan holda qo‘llanishini ta‘kidlaydi [Kolshanskiy, 2014; 9].

Paralingvistikaning vazifasi haqida gapirishdan oldin, unga nimalar kiritilganligi va u orqali qanday birliklar tashkil etilishini to‘liq tushunish uchun muhim bo‘lgan bir qator mulohazalarni ko‘rib chiqishimiz joiz. Birinchidan, paralingvistikani ekstralingvistikadan ajratishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish zarur. Oxirgi hodisa “butun til tizimining ishlashi va rivojlanishiga ta‘sir qiladi, masalan, jamiyat va til hayotining o‘zaro ta‘siri, xalq va til madaniyati, millatlararo aloqalarning tilga ta‘siri va

boshqa sotsiolingvistik hodisalar, moddiy obyektlar va belgilanishlar (nominatsiyalar) o'rtasidagi munosabat", har ikkala "paralingvistik omillar bir ma'noli xabarni shakllantirishda ishtirok etuvchi faqat ma'lum bir gapga ta'sir qiladi" [Kolshanskiy, 2014; 14-15].

Paralingvistik vositalar deyarli har bir og'zaki nutqda uchraydi [Kreydlin, 2002; 29]. Ushbu vositalarning funksiyalarini bilish bayonotni to'g'ri talqin qilishga yordam beradi; ularni ajrata olmaslik yoki noto'g'ri tushunish kommunikativ qobiliyatsizlikka olib kelishi mumkin. Masalan, suhbatdoshning titroq ovozi hayajonni anglatadi va tinglovchiga ma'ruzachining munosabatini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, paralingvistik vositalardan foydalanish "til tizimining nuqsoni" bilan emas, balki "faqat tashqi sharoitlar bilan" izohlanadi [Kolshanskiy, 2014; 15]. Muayyan vaziyatda muloqotga ta'sir qiluvchi turli xil omillar paydo bo'ladi va paralingvistik vositalardan foydalanish ba'zi leksik vositalarni qoldirib, kommunikativ muammoni hal qilish qulayroq ko'rinishi bilan bog'liq bo'ladi.

Demak, paralingvistik vositalardan foydalanish, ularning elliptik ishlatilishini belgilovchi omillar paydo bo'lganda, til tizimi haqida emas, balki muloqotda lingvistik vositalardan foydalanish haqida gapirishga imkon beradi.

O'z navbatida, paralingvistik vositalardan foydalanishning mavzuga ham bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tishimiz joiz. Shubhasiz, ko'plab paralingvistik vositalar, masalan, imo-ishoralar va mimikalar hissiyotni ifodalash vositalariga tegishli bo'ladi. Muloqotda paralingvistikning rolini to'g'ri baholash doirasida har bir nutqda ratsional qatlam (to'g'ridan-to'g'ri uzatiladigan ma'lumot) va hissiy qatlam (ma'ruzachining uzatilgan ma'lumotga munosabati) mavjuddir. Bayonot har doim ma'lum bir subyektga tegishli bo'lib, shakli va mazmuniga ko'ra subyektiv harakatdir. Biroq tildagi modal lingvistik vositalarning majmuyi nisbatan cheklangan bo'lib, ularni tiplashtirilgan, paralingvistik vositalar bilan osongina almashtirish mumkin. Albatta, bayonotning hissiy mazmuni bevosita inson ruhiyati bilan bog'liq va shuning uchun uni ifodalashda asosan "tana belgilari" qo'llaniladi: imo-ishoralar, yuz ifodalari – ya'ni ma'ruzachining kechinmalarini tashqi ko'rinishda tasvirlaydigan narsa [Kolshanskiy, 2014; 29].

Biroq barcha paralingvistik vositalar hissiy holatni ifodalashga qaratilgan deb hisoblash xatodir. Yuqorida aytib o'tilgan imo-ishoralar va mimikalar ham bayonotning oqilona qatlamini qo'llab-quvvatlashi mumkin: fakt bayoni, obyekt haqidagi fikrlar va boshqalar. Shunday qilib, paralingvistik vositalar haqida faqat hissiy sohaga tegishli deb gapirishga asos yo'q.

Demak, paralingvistik vositalar muayyan vaziyatdagi deyarli har bir gapga hamroh bo'ladi, ma'lum bir gapdagi til vositalarining tejamkorlik tamoyilini belgilaydi, og'zaki muloqotda bo'lgan narsaga nisbatan qo'shimcha yoki hatto qarama-qarshi ma'noga ega bo'lib, gapning ham hissiy, ham ratsional mazmunini kuchaytira oladi.

O'zbek tilshunosligida ham paralingvistika yo'nalishiga oid bir qator ishlarni uchratamiz. Masalan, o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarining bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bog'liqdir.

Bolalarning o'z yig'isi bilan onasiga o'z his-kechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularda ham ba'zi bir muloqot vositalarining turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatilishining guvohi bo'lish mumkin. Bolgarlar agar biron narsa bo'yicha fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar, inkor qilishmoqchi bo'lsa, aksincha, bosh silkishar ekan. Ma'lumki, o'zbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda ham ushbu holatlar kuzatiladi [G'oziyev, 2001].

Paralingvistik vositalar muloqotning verbal turidagi kabi dialekt, sleng, vulgarizm, ironiya va boshqalar singari ayrim guruhlar o'rtasida, aynan bir millat orasida yoki geografik hudud jihatidan qo'llanishi, haqorat yoki kesatish m'nolarini anglatishi mumkin. Ammo shu kunga qadar deyarli barcha yetakchi lingvist olimlar tomonidan paralingvistik vositalar verbal muloqotning bir bo'lagi, ya'ni yordamchi komponenti sifatida tadqiq qilinib, u paralingvistik vositalar ichiga aralashtirib yuborilgan. Masalan, rus tilshunos olimi V.Kolshanskiy o'zining "Paralingvistika" kitobida quyidagi nazariy fikrlarni ilgari surgan: "Paralingvistik vositalar subyektning verbal (so'zli) kommunikatsiyasining chala tomonlarini to'ldiradigan aloqa-aralashuv bo'limchasidir" [Kolshanskiy, 1974; 54].

Shunday fikr M.Saidxonovning "Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar" nomli kitobida ham uchraydi: "Aloqa-aralashuvda xizmat qiluvchi ma'lum axborotni uzatish vositalaridan bo'lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayor holdagi aloqa vositasi sanaladi. Bu ishoralar, mimika, ovozdagi turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-aralashuv vazifasini bajarishdan qat'i nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita ekanini bildiradi" [Saidxonov, 1998].

Yosh tadqiqonchi F.Narzullayeva dissertatsiyasining "Ingliz hamda o'zbek tillarida "bosh" va "ko'z" so'zlarining polisemantikligi" deb nomlangan ikkinchi bobida inson bosh qismi a'zolaridan "bosh" va "ko'z" so'zlarining ikki noqardosh tildagi umumiy va xususiy, nutqiy ma'nolari, denotativ va konnotativ ma'nolarini, turg'un birikmalardagi semantik qirralari singari lisoniy hodisalarni qanday tarzda ifodalanishi, polisemantikligi tahlilga tortilgan va ularning o'xshash va farqli tomonlari aniqlangan.

"Bosh" leksemasi dastlabki ma'nolari bilan boshqa so'zlar bilan birikib erkin qurshovda kelishini bilamiz. "Bosh" xuddi "ko'z" leksemasi singari erkin qurshovlarda "jonli (tirik) mavjudotning bo'yindan yuqori qismi" kabi mazmun munosabati bilan ishtirok etadi [Narzullayeva, 2023].

Demak, "bosh" leksemasi turli tillarda erkin va bog'liq qurshovlarda ko'plab ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Endi esa "bosh" so'zining leksik ma'nolarini qiyoslanayotgan tillarda taqqoslaymiz: Masalan, She *shook her head* sadly – U boshi bilan rizolik bildirdi.

Tadqiqotchi "head" so'zining 33 xil lug'aviy ma'nolarini aniqlagan: 1. Kishi yoki hayvonning bo'yniga bog'langan, yuz va miyani o'z ichiga olgan qismi: head. 2. Biror bir narsani boshqaradigan yoki ustidan hokimlik qiladigan odam: heads of the

major. 3. Kishining miyasi: head. 4. Matematika, tijorat yoki investitsiya kabi biror bir narsani yaxshi qilish kobiliyati: has a head for the business. 5. Kishi, odam: *head*; [Narzullayeva, 2023; 15].

Mazkur ishda o'zbek tilida "bosh" leksemasining iboralardagi 32 ma'nosi borligi kuzatilgan: 1. Boshi bilan. 2. Boshi bog'liq. 3. Xotin boshi bilan. 4. Boshi ochiq. 5. Bosh og'rig'i [Narzullayeva, 2023].

Inson suhbatida davomida xo'rsinish, yo'talish, yig'lash, kulish, soat kabi chiqqillash yoki o'ziga xos ovoz ohangi kabi paralingvistik vositalar yordamida o'z ruhiy holatini aks ettirishning yoki suhbatga bo'lgan munosabatini ifoda qilishning uddasidan chiqqa oladi.

Adabiy matndagi paralingvistik vositalarning ularning paratilning quyidagi turlari bilan o'zaro aloqadorligini – to'rtta paralingvistik vositalar orqali ifodalash mumkin: *fonatsiya, kinesika, imo-ishoralar, kontekst*.

Yuqoridagi noverbal vositalarning har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Demak, tilshunoslikda *fonatsiya* deganda "tovush hosil bo'lishi, nutq tovushlarini hosil qilish jarayonida barcha a'zolarning birgalikdagi faoliyati, nutqning o'zi tovushi, shuningdek, nutq tovushining sifati tushuniladi.

Tilshunoslikda *fonatsiya* deganda "tovush hosil bo'lishi, nutq tovushlarini ishlab chiqarish jarayonida barcha organlarning birgalikdagi ishi", nutqning o'zi, shuningdek, nutq tovushining sifati tushuniladi [Yartseva, 1990].

Artikulyatsiya va ovoz yordamida odam nafaqat nutqni ishlab chiqishi, balki nutq subyektiga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zining psixofizik holati bilan o'zida mujassamlashtira oladi. Fonatsiya ikki jihatni birlashtiradi: har bir kishi nutqning individual fazilatlarini (masalan, ovoz tembr, ohanglari, diksiyasi) va fonematik, ya'ni haqiqiy lingvistik xususiyatlar.

Yuqorida aytib o'tilgan ovozning jismoniy ma'lumotlari (tembr, diksiya, gapirish uslubi, shuningdek, ovozning kuchi, intonatsiyasi) tinglovchi o'z tajribasi va bilimiga asoslanib, so'zlovchi hatto notanish odam haqida xulosa chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ammo bu ma'lumot bayonotning ma'nosi va berilgan vaziyat tufayli emas, balki ovozning xususiyatlari tufayli izolyatsiya qilingan. Shu ma'noda, paralingvistik vosita sifatida ovozning jismoniy ma'lumotlari haqida gapirish o'rinli emas.

Biroq paralingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishni talab qiladigan ovozning umumiy fonatsiya xususiyatlari mavjud. Bunday holda subyekt jismoniy xususiyatlari nuqtayi nazaridan emas, balki nutq so'zlashuviga hamroh bo'lgan holatlar nuqtayi nazaridan tavsiflanadi. Bunday holatlar subyektni biologik xususiyatlarning tashuvchisi sifatida emas, balki nutqiy vaziyatning ishtirokchisi sifatida ko'radi.

Ko'pgina tadqiqotchilar intonatsiyaning ekspressiv yoki emotsional funksiyasini ta'kidlaydilar. Shubhasiz, bu vazifa tilning lingvistik muammolariga kiritilmagan. Tuyg'ular ham inson psixikasi sohasiga tegishli bo'lib, so'zlovchi haqida lingvistik bo'lmagan ma'lumotlarni olib yurishi mumkin. Fonatsiya vositalarining sof lingvistik xususiyatlarini lisoniy bo'lmagan ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan va nutqni yaratish jarayoniga o'rnatilgan xususiyatlardan ajratish lozim.

G.V. Kolshanskiy fonatsiyani lingvistik va nolingvistik hodisalar doirasida ko‘rib chiqishning 4 jihatini belgilaydi:

1. Til birliklarining artikulyatsiyasini o‘rganish bilan bog‘liq jihat. Bu jihat sof lingvistikdir.

2. Suprasegmental hodisalarni o‘rganuvchi jihat (intonatsiya va frazali urg‘u). Bu jihat ham bevosita tilshunoslik sohasiga tegishli.

3. Uchinchi jihat artikulyatsiyani “muloqotning umumiy shartlarini ochib beruvchi qandaydir prozodik xususiyat” sifatida ko‘rib chiqadi. Muloqotning prozodik xususiyatlarining ushbu tizimi imo-ishoralar va mimikalarning quyi tizimi bilan bir qatorda ko‘rib chiqiladi va “yuqori so‘z birikmalarining fonatsion stereotipini” beradi. Bu jihatni inson fonatsiyasi imkoniyatlarining paralingvistik funksiyalari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish mumkin.

4. Fonatsiyani psixofizik hodisa sifatida o‘rganish. Bunda fonatsiya nutqning artikulyatsiyasi bilan hech qanday aloqasi yo‘q, ovozning xususiyatlari bilan bog‘liq va faqat odamning psixofizik holati, masalan, tirnash xususiyati haqida ma‘lumot beradi. Bunday hodisalar so‘zlashuv sohasidan mustaqil faoliyat ko‘rsatishi mumkin va shuning uchun ham paralingvistika sohasiga kirmaydi [Kolshanskiy, 2014; 43-44].

Shunday qilib, fonatsiyani turli tomonlardan ko‘rish mumkin va bir xil hodisa (masalan, nutqning balandligi) aytilayotgan narsaga qo‘shimcha ma‘no yoki faqat nutq apparatining ishlashi nuqtayi nazaridan qaralishi mumkin. Ushbu tadqiqotda faqat so‘z bilan aytilganidan tashqari ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan, ya‘ni G.V. Kolshanskiyning yuqoridagi tasnifining uchinchi jihatiga mos keladigan fonatsiya holatlarini quyida tahlil qilamiz.

Kinesika atamasi ikki ma‘noda qo‘llaniladi: inson tanasining harakatiga ishora qilish va shu sohani o‘rganuvchi fan sohasining nomi sifatida. *Kinesika* – bu tana harakatlarining semiotikasini yoki oddiyroq aytganda, tana tilini o‘rganadigan fandır. Ammo shuni yodda tutish kerakki, insonning har qanday holatini ko‘rsatadigan barcha tana harakatlari ham paralingvistik emas.

Endi kinesika til tizimi bilan birga mavjud, unga hamrohlik qiladi, lekin uning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi [Kolshanskiy, 2014; 46-47].

Paralingvistik kinesikani og‘zaki muloqotning tarkibiy qismi deb hisoblash mumkin, chunki u inson xatti-harakatlarining semiotik quyi tizimidir [Potapova & Potapov, 2006; 96].

Kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lgan fiziologik harakat va harakat o‘rtasidagi chiziq juda xira va ko‘p jihatdan kontekstga bog‘liq. Muloqotda adresat ma‘lum bir tana harakatini to‘g‘ri talqin qilish vazifasiga duch keladi, aks holda kommunikativ qobiliyatsizlik paydo bo‘lishi mumkin (masalan, esnash: suhbatdosh charchaganligi sababli, surunkali uyqusizlikdan yoki u xohlagani uchun esnayapti yoki suhbat uning uchun zerikarli va qiziq emasligini ko‘rsatadi) [Kreydlin, 2002; 287].

Tilshunos uchun kinesikani tahlil qilishda tana harakatlarining “paralingvistik va biologik funksiyalari o‘rtasida aniq chegarani chizish” har doim juda muhimdir [Kolshanskiy, 2014; 48]. Masalan, boshga shapaloq urish jazolash vositasi sifatida (keyin u paralingvistik funksiyaga ega bo‘ladi) va “boshning orqa tomoniga zarba

berish” harakati (bu shunchaki odamning jismoniy harakati) sifatida ko‘rib chiqiladi [Kreydlin, 2002; 288].

Tadqiqotchi M.Kay o‘z asarlarida kinesikani o‘rganishni uchta katta bo‘limga ajratadi:

1. Prekinesika. Bu yerda gap fiziologiyani tahlili, imo-ishora harakatlarining tuzilishi va boshqalar haqida ketmoqda.

2. Mikrokinetika – imo-ishora tilining minimal birliklari va ularning katta sinflarga birikmasini o‘rganadi.

3. Mikrokinetika yoki sosiokinetika. Bu guruh tana harakatlarining ijtimoiy sharoitlarda, ya’ni ulardan foydalanish shartlari aniq belgilangan joylarda ishlashini o‘rganadi. Bu yerda noverbal nutqiy harakatlarning tuzilishiga oid tadqiqotlar ham olib boriladi [Key, 1975]. Bu guruh kinesikaning noverbal va paralingvistik funksiyasi bilan bog‘liq.

Paralingvistika tizimidagi *imo-ishoralar muloqot* jarayonida katta rol o‘ynaydi. Muloqot jarayonida og‘zaki bayonotni to‘g‘ri talqin qilishga yordam beradigan vositalarga imo-ishoralar va mimikalar ham kiradi. Imo-ishoralarga odamning turli xil tana harakatlari va mimika – uning yuz ifodasi kiradi.

Imo-ishoralar va mimikalar dastlab sof biologik hodisa bo‘lgan, ammo vaqt o‘tishi bilan ularning ko‘pchiligi noverbal tizimda mustahkamlanib tipiklashgan. Ya’ni, “bu vositalardan ba’zilarining ma’lum bir xarakteri o‘tib, paralingvistik hodisaga aylandi” [Kolshanskiy, 1974; 54].

